

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QULMUMINOV O‘ROLBOY SAFAR O‘G‘LI

**ONA TILI DARSLARIDA KREATIV KO‘NIKMALARNI
RIVOJLANTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Qulmuminov O'rolboy Safar o'g'li

Ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasi..... 3

Кулмуминов Уролбой Сафар углы

Методика моделирования процесса развития креативных навыков на уроках родного языка..... 25

Kulmuminov Urolboy Safar ogli

The methodology of modeling the process of developing creative skills in mother tongue lessons 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QULMUMINOV O‘ROLBOY SAFAR O‘G‘LI

**ONA TILI DARSLARIDA KREATIV KO‘NIKMALARNI
RIVOJLANTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8682 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terdpi.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxtarova Lobar Abdimannabovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “13” yanvar kuni soat 13:00 dagi 01/4 - son majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Termiz tumani, “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1-A uy.) Tel.: (99876) 363-31-93; e-mail: terdpi@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (16 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Termiz tumani, “Yangiobod” At-Termiziy ko‘chasi, 1-A uy.) Tel.: (99876) 363-31-93.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «24» dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil “24 ” dekabrda 16 - raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.A.Kuldasheva
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi
k.f.d., professor

M.K.Ismailov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi
p.f.f.d. (PhD), dotsent

M.X.Shomirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy transformatsion jarayonlar shiddat bilan kechayotgan va globallashuv tobora chuqurlashayotgan davrda ta'lim tizimining roli yanada ortib bormoqda. Ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari asosida ta'limga bo'lgan talablar yangilanib, ta'limni rivojlantirish bo'yicha xalqaro darajada muhim hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, Butunjahon Ta'lim Forumi doirasida ishlab chiqilgan va 2030-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyada "Barcha insonlar uchun hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash"¹ strategik vazifa sifatida ilgari surilgan. Ushbu yondashuv boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarini shakllantirish, ona tili darslarida kreativ faoliyatni modellashtirish hamda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali ilmiy-metodik mexanizmlarini yaratishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Dunyo tajribasi shuni anglatmoqdaki, zamonaviy ta'lim tizimi uchun asosiy yo'nalishlardan biri - o'quvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, samarali muloqot va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual salohiyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Fraser Academy (Kanada), Mabin School (Toronto), Reggio Emilia Approach Schools (AQSh), Blue School (AQSh, Nyu-York), Steve Jobs Schools (Niderlandiya), Alt School (San Francisco), Talent Culture Academy (Kanada) singari ilg'or ta'lim muassasalari o'sib kelayotgan yosh avlod tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishni asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilab olishgan. Mazkur yondashuvlar ta'limda zamonaviy ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarda erkin, tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, global miqyosda kreativ fikrlash ko'nikmasi va tafakkur tezligi muhim kompetensiyalar sifatida qaralayotgani, o'z navbatida, tezkor va faol intellektual avlodni tarbiyalash zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida yangi avlod o'quvchilarining ehtiyojlari, shaxsiy qiziqishlari va zamonaviy jamiyat talablariga mos keluvchi alternativ ta'lim modellarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. XXI asrda zarur bo'lgan asosiy kalit kompetensiyalar – mustaqil fikrlash, kreativlik, tanqidiy tahlil qilish, muloqotga kirisha olish va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ilg'or xalqaro maktablar amaliyotida muhim o'rin egallamoqda. Mazkur yondashuvlarning mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimiga integratsiyasi yosh avlod tafakkurini erkin, izchil va ijodiy asosda shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ ko'nikmalarni erta bosqichda rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ta'limda shaxs kamolotini ta'minlay oladigan

¹Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [World Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].

samarali metodikalar asosida o'quvchilarning og'zaki nutqi, ijodiy tafakkuri va fikr ifodalash qobiliyatini og'zaki mashqlar orqali shakllantirish muhim metodik yo'nalish sifatida belgilanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi² farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda keyingi yillarda ona tili o'qitish metodikasiga doir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh.O'. Nurullayeva boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, A.R. Hamroyev ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish, N.Alovuddinova ona tilini o'qitish orqali mustaqil ishlash, K.Mavlonova ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish muammolarini tadqiq qilgan. B.R. Adizov boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish, D.R. Shabbazova boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish, G'.Hamroyev ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, R.S.Xurramov ona tili darslarida o'quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirishda etnopedagogikadan foydalanish, A.S.Abdusamatov boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-bilish faoliyatini modellashtirish asosida takomillashtirish metodikasiga oid masalalarni o'rgangan. Shuningdek, ijodiy, mustaqil va tanqidiy tafakkurning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muammosi E.G'oziyev, V.Karimova, Z.Nishonovalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishi obyekt sifatida belgilangan.

MDH mamlakatlari olimlardan V.A.Bolotov, V.Popkov, A.V.Butenko, A.V.Korjuyev, A.Brushlinskiy, O.Tixomirovlar o'quvchilarda ijodiy va produktiv

² 2020-yil 20-oktyabrdagi 6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonlari.

tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik modellar taklif etishgan. N.A.Kozyrev va O.A.Kozyrevalar pedagogik modellashtirishni yangi pedagogik bilimni yaratish vositasi sifatida, E.E.Grigorash esa shaxs rivoji va ta'lim sifatini boshqarish hamda nazorat qilish bilan bog'lagan. A.N.Daxin, V.A.Shterenzon, V.G.Afanasyev, V.V.Polovinkina va V.I.Mixeyev esa pedagogik jarayonlarni tasvirlash, tahlil qilish va tashhishlashda matematik modellardan foydalanib, ushbu sohada qat'iy miqdoriy yondashuvni shakllantirganlar.

Xorijlik mutaxassislardan B.Lucas va E.Spencer, E.Torrance, R.K. Sawyer, M.Csikszentmihalyi, A.Craft, M.A.Runcolar divergent fikrlash, kreativlikni o'quv jarayonida baholash va rivojlantirish jarayonini nazariy asosda tadqiq qilgan. Drapeau Patti, D.Ambrose, T.Amabile ta'lim jarayonida kreativlikni kompleks rivojlantirish modelini, R.Sternberg ijodiy fikrlashni o'lchash va rivojlantirish, J.Kaufman ta'limiy kreativlik, ijodiy yozuv, kreativ shaxs psixologiyasi, J.Baer, R.Budon, Kurt Gedel, R.Begettolar kreativ qobiliyatni shakllantirish masalalarini tadqiq qilganlar.

Soha olimlari tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning pedagogik va metodik jihatlari yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasi masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi "Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar bilimini o'stirish va umumiy rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari" asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish (2022-2025-yy.) mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasini o'rganish;

ona tili darslarini modellashtirish orqali kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish mazmuni va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishning tashkiliy-funksional modelini takomillashtirish;

ona tili darslarida o'quvchilarining kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligini aniqlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlanib, Surxondaryo, Farg'ona, Buxoro viloyatlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 615 nafar o'quvchilar pedagogik tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan.

Tadqiqotning predmeti boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida ilg'or milliy va xorijiy tajribani o'rganish, qiyosiy pedagogik tahlilni amalga oshirish, pedagogik kuzatuv, modellashtirish, interfaol, diagnostik test, suhbat, pedagogik tajriba, matematik-statistik tahlil asosida natijalarini umumlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish tarkibiy tuzilmasi ilmiy asoslanib, uning leksik-kreativ (so'z ijodkorligi, fleksiblik, transformativlik) va diskursiv-konstruksiya (matn tuzish, perspektiv fikrlash, emotsional interaksiya) komponentlari didaktik birlik sifatida o'rganilgan;

“Cheksiz tasavvur” dasturi asosida ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi moslashuvchan-konstruktiv (Kreativ grafika, Jonli tasavvur) va moslashuvchan-produktiv (Teskarilar mamlakati, Sehrli lug'at sarguzashti) ijodiy mashqlar tizimi ishlab chiqilgan hamda didaktik imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan.

ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-funksional model lingvokreativ tamoyillar (leksik-transformativ, kommunikativ-diskursiv, estetik-emotsional) hamda motivatsion-qadriyatli, shaxsiy-ijodiy, amaliy-faoliyatli, refleksiv komponentlarning uyg'unligi asosida takomillashtirilgan.

ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati va emotsional-intellektual kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy matn yaratish va perspektiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvokreativ yondashuv asosidagi innovatsion dars modellari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ona tili darslarida o'quvchilarda kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi “Cheksiz tasavvur” dasturi ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga doir “Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi” nomli dasturiy platforma (DGU 20237527. 19.10.2023) ishlab chiqilgan;

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” nomli darslik va “Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasi va uni o'qitish metodikasi” nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda keltirilgan metodologik jihatlarni aniq qilib belgilab olinganligi, turli metodlardan o'zaro uyg'unlikda foydalanilganligi, tadqiqotning har bir bosqichi mohiyatidan kelib chiqib tanlanganligi hamda bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot natijalarining ichki mantig'ini belgilab olinganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar

vositada aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati muammo mohiyatini yorituvchi “kreativlik va ijodkorlik”, “kreativ ko‘nikma”, “lingvokreativ”, ”modellashtirish” kabi tushunchalar mazmunining ilmiy ta’riflanganligi, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarining kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirishga xizmat qiladigan pedagogik tizim mohiyati ochib berilganligi, jarayonga ta’sir qiluvchi pedagogik-psixologik aspektlarning nazariy tahlil etilganligi; kreativ ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajalarini belgilash ko‘rsatgichlari va mezonlari hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta’minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ona tili darslarida o‘quvchilarining kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir tashkiliy-funksional modeli takomillashtirilganligi, kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatni tashkil etish shakllari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan dastur va loyihalardan boshlang‘ich ta’lim jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi ona tili darslarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar asosida:

ona tili darslarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish tarkibiy tuzilmasi leksik-kreativ (so‘z ijodkorligi, fleksiblik, transformativlik) va diskursiv-konstruksiya (matn tuzish, perspektiv fikrlash, emotsional interaksiya) komponentlari asosida o‘quvchilarda kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalardan boshlang‘ich ta’lim amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 29-maydagi 01/11-6-351-son ma’lumotnomasi) Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan bog‘liq nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni qaror toptirishga xizmat qilgan;

ona tili darslarida o‘quvchilarning kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni “Cheksiz tasavvur” dasturi asosida moslashuvchan-konstruktiv va moslashuvchan-produktiv ijodiy mashqlar tizimini ishlab chiqish kabi pedagogik imkoniyatlarga ustuvorlik berish hamda hayotiylik va kontekstual moslik tamoyillariga asoslangan taklif va tavsiyalar “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi “136”-sonli buyrug‘iga asosan 531394-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, ona tili darslarida o‘quvchilarning kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ona tili darslarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-funksional model lingvokreativ tamoyillar (leksik-transformativ, kommunikativ-diskursiv, estetik-emotsional) hamda motivatsion-qadriyatli, shaxsiy-ijodiy, amaliy-

faoliyatli, refleksiv komponentlarning uyg'unligi bilan bog'liq holda ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar "Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasi va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi "136"-sonli buyrug'iga asosan 923843-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish faoliyati samaradorligining oshishiga xizmat qilgan;

ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati va emotsional-intellektual kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy matn yaratish va perspektiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvokreativ yondashuv asosidagi innovatsion dars modellariga doir taklif va tavsiyalar 2021-2023 - yillarga mo'ljallangan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi RZ-202004165-raqamli "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada dissertatsiya ishi ilmiy natijalaridan va ushbu natijalar aks etgan maqolalardan foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-iyundagi 01/4-2801-son ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada ona tili darslarida o'quvchilarda kreativ, ijodkorlik va loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shuningdek, ilovalardan iborat, asosiy matni 139 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqot ishlarining tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida kreativ fikrlash tushunchasining umumiy tavsifi, kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy talqinlari: zamonaviy yondashuvlar, boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini modellashtirishning didaktik imkoniyatlari o'rganilgan.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, kreativlik, mustaqillik, samarali muloqot va hamkorlik XXI asr ta'limining asosiy kompetensiyalari sifatida ajralib turadi. Kreativlik (*lot., ing. "create" – yaratish, creative – yaratuvchi, ijodkor*) – shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida kreativlik tushunchasiga *mualliflik talqini kiritildi: Kreativlik* - bu o'quv jarayonida yangi va foydali g'oyalarni o'ylab topish, muammolarni noodatiy usullar bilan hal qilish hamda mavjud narsalardan yangicha tarzda foydalanish qobiliyatidir. Kreativlik tug'ma xususiyat bo'lib qolmay, balki rivojlantirilishi mumkin bo'lgan shaxsiy qobiliyat sifatida namoyon bo'ladi. Uning shakllanishi va takomillashuvi o'qish, samarali muloqot, amaliy tajriba orttirish, tasavvur salohiyatini kengaytirish hamda muntazam mashq jarayonlari orqali ta'minlanadi.

Kreativ ko'nikmalar - bu o'quvchining yangi, original va samarali fikrlash qobiliyati, muammolarni yechish va o'z g'oyalarni mustaqil ifoda etish qobiliyatidir. Ularni rivojlantirish nazariy jihatdan bir nechta zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bog'liq:

kommunikativ yondashuv o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq, muloqot madaniyati va erkin fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Darslar tirik muloqot va interaktiv faoliyatga asoslanib, o'quvchilarni savol berish, javob qaytarish va fikrini asoslash orqali kreativ fikrlashga rag'batlantiradi;

modellash tirish yondashuvi o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarini vizual va konseptual modellar orqali tizimli ravishda shakllantirish imkonini beradi. U tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi, mustaqil fikrlash va tahlil qilishni rag'batlantiradi hamda matnning tarkibini sxemalar, gap modellari yoki "so'z-gap-fikr" zanjiri orqali tashkil etadi;

lingvokreativ yondashuv o'quvchilarda til materiallari bilan ijodiy ishlashni rag'batlantiradi, kreativ tafakkur va individual lingvistik kompetensiyalarni shakllantiradi. U tilni nafaqat o'rganish, balki yaratish vositasi sifatida qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, matn tuzish, so'z o'yinlari va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning erkin nutq va estetik didini rivojlantiradi. Shu tariqa, zamonaviy

yondashuvlar o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishning asosini tashkil qiladi.

Ona tili darslari o'quvchilarning til, fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega. Dars mazmuni nafaqat til qoidalarini o'rgatish, balki matn yaratish, muammolarni hal qilish va emotsional-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Kreativ ko'nikmalar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, original yechimlar topish va o'z g'oyalarni ifoda etish qobiliyatini oshiradi, shu tariqa darsda ularning intellektual, ijodiy va shaxsiy rivojlanishi ta'minlanadi.

Tadqiqot jarayonida ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish tarkibiy tuzilmasi ilmiy asoslanib, uning leksik-kreativ (so'z ijodkorligi, fleksiblik, transformativlik) va diskursiv-konstruksiya (matn tuzish, perspektiv fikrlash, emotsional interaktsiya) komponentlari didaktik birlik sifatida o'rganildi hamda ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Ushbu tuzilma o'quvchi nutq faoliyatining ikki asosiy yo'nalishini qamrab oluvchi didaktik birlik sifatida talqin qilingan. Jumladan, kreativlikning birinchi komponenti - leksik-kreativ faoliyat o'quvchilarning so'z ijodkorligi, fleksiblik (til birliklaridan erkin foydalanish, bir birlikni turli kontekstlarda yangicha ma'no va vazifalarda qo'llay bilish) va transformativlik (mavjud til birliklarini o'zgartirish, kengaytirish, yangi semantik tuzilmalar yaratish) kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Ikkinchi komponent - diskursiv-konstruksion faoliyat mazmunli va mantiqan bog'langan matn tuzish, perspektiv (ko'p yo'nalishli) fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, kommunikativ jarayonda emotsional-interaktiv munosabatni yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarda ijodiy nutq va diskursni tashkil etish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, har ikki komponentning o'zaro integratsiyasi ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni kompleks rivojlantirishning ilmiy-didaktik modeli sifatida asoslab berildi.

Ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish va uni amaliyotga tatbiq etish uning pedagogik shart-sharoitlari, imkoniyatlarini aniqlashga, o'quvchilarda kreativ ko'nikmalarni yanada rivojlantirishning maqbul shakl, usul, vosita va yo'llarini aniqlashga yordam beradi, o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish sifati va motivatsiyasi barqarorligini ta'minlash kabi vazifalarni hal qiladi.

Ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish zarurati uning o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lib, bu o'quvchilarda yangi g'oyalarga intilish, ularning tasavvurlarni ta'sirchan tarzda ifodalash, bilim olishni rag'batlantiruvchi, original va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarish, o'quvchilarning g'oyalar yaratish jarayonida qay darajada ishtirok etishi, g'oyalarning ahamiyati va yangiligini inobatga olib, ularga nisbatan o'z munosabatlarini qay tartibda bildirishini va o'zlari kutgan natijaga

erishmagunga qadar g'oyalarni yaratishda davom etish jarayoni bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "Model", "modellashtirish" kabi tushunchalar - hodisa va jarayonlarni model yordamida tadqiq qilish; ob'ektlar (jonli va jonsiz tizimlar, muhandislik konstruksiyalari, fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy jarayonlar hamda loyihalanadigan ob'ektlar)ning modellarini yasash" deb izohlanadi. Modellashtirish, ayniqsa mavhum obyektlarni, olis-olislarda joylashgan obyektlarni, juda kichik hajmli obyektlarni o'rganishda ahamiyati kattadir. Modellashtirish inson faoliyatining turli-tuman sohalariga tobora kengroq va chuqurroq kirib bormoqda, tadqiqotning samarali vositalaridan foydalanishga imkon bermoqda.

Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini modellashtirishning didaktik imkoniyatlari o'quv jarayonini tizimli, samarali va interaktiv tashkil etishga xizmat qiladi. Modellashtirish orqali o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni vizual, konseptual va amaliy shakllarda o'zlashtiradi, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'radi hamda mustaqil fikrlash, tahlil va ijodiy yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, modellashtirish darslarda kommunikativ va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga, matn yaratish va so'z o'yinlari orqali kreativ tafakkurni rag'batlantirishga imkon yaratadi. O'quvchilarning motivatsiyasi oshadi, dars jarayoni qiziqarli va hayotiy kontekstga mos bo'ladi. Bu imkoniyatlar 1-jadvalda tizimli ravishda ko'rsatilgan bo'lib, har bir komponent o'quvchilarning intellektual, lingvistik va ijodiy rivojlanishini samarali ta'minlashga qaratilgan.

1-jadval.

Ona tili darslarini modellashtirishning didaktik imkoniyatlari

№	Didaktik imkoniyat	Tavsif
1	Bilimlarni tizimli taqdim etish	Til qoidalari va so'z boyligini tizimli tushuntirish.
2	Kognitiv faoliyatni rivojlantirish	Mustaqil fikrlash va tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.
3	Ijodiy va kreativ yondashuv	Matn yaratish va so'z o'yinlari orqali ijodiy fikrlashni rag'batlantirish.
4	Nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish	Og'zaki va yozma nutq, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish.
5	Amaliyotga moslashuv	Tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini oshirish.
6	Motivatsiya va qiziqishni oshirish	Interaktiv va vizual modellar bilan e'tibor va qiziqishni jalb etish.

Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini modellashtirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kreativ tafakkurini tizimli, samarali va interaktiv shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi. Modellashtirish orqali o'quvchilar tilni o'rganish bilan birga uni ijodiy qo'llash, matn yaratish, nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish imkoniga ega bo'ladi. Shu tariqa, dars jarayoni hayotiylik, kontekstual moslik va motivatsiyaga asoslanib tashkil etiladi, bu esa

o'quvchilarning mustaqil fikrlash va kreativ faoliyatini samarali rivojlantirishni ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Ona tili ta’limida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasi”** ikkinchi bobida ona tili o‘qitishda kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimning zarurati, metodik tizimning tarkibiy komponentlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi, ona tili darslarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasining tashkiliy-funksional modeli hamda uning amaliy qo‘llanilishi bayon qilingan.

Ona tili o‘qitishda kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizim zarurati bir nechta asosiy jihatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, XXI asr ta’limining asosiy kompetensiyalari – kreativlik, mustaqil fikrlash, muammolarni ijodiy yechish va samarali muloqot o‘quvchilarda maqsadli tarzda shakllantirilishi talab etiladi. Ikkinchidan, an’anaviy yondashuvlarga asoslangan dars jarayonlari o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini to‘liq rivojlantirish imkonini bermaydi. Shu bois, o‘quvchilarni nafaqat til qoidalari va so‘z boyligi bilan tanishtirish, balki ularni erkin fikrlash, matn yaratish, muloqot va nostandart vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishini ta’minlaydigan metodik tizim zarur. Ushbu tizim darslarni mazmunan boyitadi, pedagogik jarayonni interaktiv va kontekstual qiladi hamda o‘quvchilarning ijodiy erkinligi va lingvokreativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayoni mazmuniy va metodik jihatlari bilan o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Cheksiz tasavvur” dasturi asosida o‘quvchilarga moslashuvchan-konstruktiv va moslashuvchan-produktiv ijodiy vazifalarni bajarish imkoniyati yaratilgan. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga nostandart yechimlarni topish, muammolarni ijodiy yo‘l bilan hal etish hamda fikrlash jarayonini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, darslar hayotiylik va kontekstual moslik tamoyillari asosida tashkil etilib, o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarga mos ravishda ijodiy faoliyat va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu tariqa, pedagogik imkoniyatlar o‘quvchilarning ijodiy erkinligini qo‘llab-quvvatlash va kreativ tafakkurini shakllantirishga zamin yaratadi.

Moslashuvchan-konstruktiv va moslashuvchan-produktiv ijodiy vazifalarni bajarish imkoniyati o‘quvchilarga o‘z fikrini erkin ifodalash, mavjud bilim va ko‘nikmalarni turli kontekstlarda moslashtirish va yangi yechimlar yaratish imkonini beradi. Moslashuvchan-konstruktiv vazifalar o‘quvchilardan oldindan mavjud bilimlar va tajribani tahlil qilish, ularni qayta tuzish va yangi kontseptual tuzilmalar yaratishni talab qiladi. Moslashuvchan-produktiv vazifalar esa o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rag‘batlantirib, ularni nostandart yechimlar topish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va amaliy natijalarni yaratishga yo‘naltiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytiradi, muammolarni kompleks tarzda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va darslarni interaktiv, kontekstual va hayotiy mazmun bilan boyitadi. Shu tariqa, pedagogik


jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va kreativ yondashuvini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda kreativ ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajasini aniqlash jarayoni ko‘p o‘lchovli, kompleks va tizimli diagnostik yondashuvga asoslanib, shaxsning kognitiv, emotsional-irodaviy hamda faoliyatga yo‘naltirilgan komponentlarining integrativ rivojlanish holatini aniqlashni nazarda tutadi. Kreativ ko‘nikmalarning rivojlanganligini baholash mezonlari quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar orqali tavsiflanadi: birinchidan, divergent fikrlash, ya‘ni o‘quvchining muammo yechimiga nisbatan bir nechta alternativ g‘oyalarni taklif qilish qobiliyati; ikkinchidan, g‘oya ishlab chiqishning fikr fleksibligi, ya‘ni fikr yo‘nalishini erkin o‘zgartira olish, stereotiplar doirasidan chiqib fikrlash layoqati; uchinchidan, original fikrlash, ya‘ni taklif etilayotgan g‘oyalarning yangiligi, noodatiyligi va o‘ziga xosligi; to‘rtinchidan, elaboratsiya, ya‘ni g‘oyalarni batafsil rivojlantirish, ularni mantiqiy va mazmunan boyitish qobiliyati.

Mazkur mezonlar o‘quvchilarning faqatgina ijodiy mahsulotlarini emas, balki ularning fikrlash strategiyalari, muammoli vaziyatlarni idrok etish mexanizmlari, noodatiy yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati hamda kreativ faoliyatga nisbatan motivatsion yo‘nalganligini ham qamrab oladi.

Kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish murakkab, bosqichma-bosqich kechadigan jarayon bo‘lib, u bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bu komponentlar o‘quvchilarning shaxsiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni erkin, mustaqil va ijodkor fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlanganligini aniqlash mezonlari quyidagilar asosida belgilandi: (1-rasmga qarang).



1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ ko‘nikmalar rivojlanganligini aniqlash mezonlari

Divergent fikrlash – o‘quvchining muammoli vaziyatni bir yoqlama emas, balki ko‘p yo‘nalishli kognitiv strategiyalar asosida tahlil qilish, bir nechta ehtimolli yechim modellarini ishlab chiqish va ularni parallel ravishda asoslab bera olish layoqatini ifodalovchi intellektual faoliyat ko‘rsatkichidir. Ushbu mezon shaxsning ijodiy fikrlash tezligi, g‘oyalar oqimini erkin shakllantirish hamda muammo doirasini kengaytirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Fikr fleksibilligi (moslashuvchan tafakkur) darajasi – o‘quvchining kognitiv stereotiplardan chiqib, an’anaviy fikrlash uslublarini transformatsiya qilish, muammo yechimiga nisbatan yondashuvlarni o‘zgartirish va vaziyatga mos ravishda yangi intellektual strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatini aks ettiruvchi murakkab psixodidaktik ko‘rsatkichdir. Ushbu mezon tafakkurning adaptivligi va kognitiv plastiklik darajasini belgilaydi.


Originallik ko‘rsatkichi – o‘quvchining taklif qilinayotgan g‘oyalarining takrorlanmasligi, standart bo‘lmagan intellektual konstruksiyalarni yaratish hamda mavjud bilimlar negizida yangi semantik mazmunlarni shakllantira olish salohiyatini ifodalovchi kreativ-intellektual mezondir. Bu ko‘rsatkich ijodiy mahsulotlarning yangilik darajasi va individual fikrlash uslubining yaqqolliigi bilan tavsiflanadi.

Elaboratsiya (g‘oyani chuqurlashtirish) darajasi – o‘quvchining dastlabki g‘oyani mantiqiy jihatdan rivojlantirish, uni strukturaviy jihatdan boyitish, tafsilotlar bilan to‘ldirish hamda konseptual darajada mukammallashtirish qobiliyatini aks ettiruvchi analitik-sintetik faoliyat mezonidir. Mazkur ko‘rsatkich o‘quvchining tafakkur izchilligi, argumentatsiya madaniyati hamda kompleks fikrlash layoqatini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan baholash mezonlari o‘quvchilarda kreativ ko‘nikmalarning shakllanganlik holatini tizimli, bosqichma-bosqich va kompleks tarzda diagnostika qilish imkonini beruvchi ilmiy-pedagogik instrumentariy sifatida xizmat qiladi. Ushbu mezonlar asosida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati aniqlanibgina qolmay, balki ularning individual kognitiv va shaxsiy xususiyatlariga muvofiq differensial pedagogik ta’sir strategiyalarini loyihalash imkoniyati ham vujudga keltirildi.

Tadqiqot konseptual maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ona tili ta’limi jarayonida lingvokreativ yondashuvning metodologik ustuvorliklariga tayangan holda, kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni modellashtirishga asoslangan takomillashtirilgan metodik model ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Ushbu model o‘quvchilarda kreativ fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning maqsadli yo‘nalganligini, mazmuniy asoslarini hamda kutilayotgan pedagogik samaradorlik natijalarini o‘zida mujassam etadi. Ishlab chiqilgan model tuzilmasi o‘zaro mantiqiy bog‘langan to‘rt asosiy strukturaviy blokni qamrab oladi: maqsadli blok (ta’lim jarayonining strategik yo‘nalishlarini belgilovchi), mazmuniy blok (o‘quv materiallari va lingvokreativ faoliyat turlarini tizimlashtiruvchi), jarayonli-diaagnostik blok (o‘qitish metodlari, texnologiyalari hamda baholash mexanizmlarini integratsiyalovchi) hamda natijaviy blok (shakllangan kompetensiyalar va erishilgan pedagogik natijalarni aks ettiruvchi).




2-rasm. Ona tili darslarida kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini modellashtirish metodikasini takomillashtirish modeli.

Mazkur bloklarning o'zaro uzviyligi pedagogik jarayonning yaxlitligi va izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishida tashkiliy-funksional model ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini tizimli tarzda tashkil etish uchun

mo'ljallangan. Ushbu model quyidagi tarkibiy komponentlardan tashkil topgan: (3-rasmga qarang).



3-rasm. Kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish modelining tarkibiy komponentlari

Motivatsion-qadriyatli komponent – o'quvchilarning ichki motivatsiyasini faollashtirish, qiziqishini oshirish va ularni ijodiy faoliyatga jalb qilish.

Shaxsiy-ijodiy komponent – o'quvchilarning individual imkoniyatlari va kreativ salohiyatini hisobga olgan holda, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Amaliy-faoliyatga yo'naltirilgan komponent – moslashuvchan-konstruktiv va moslashuvchan-produktiv ijodiy vazifalar, loyiha ishlari va topshiriqlar orqali bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llash.

Refleksiv komponent – o'quvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va yangi vaziyatlarda bilimlarni moslashtirish imkonini yaratadi.

